

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Aholi maskanlarini vujudga kelishida geomorfologik omillarning o'rni va ahamiyati	231
O.I.Abdug'aniyev	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash usullari	236
T.D.Jumayev, Sh.B.Qurbanov	
O'zbekiston tog' zonasasi ma'muriy-hududiy bo'linishi xususiyatlari va ularni takomillashtirish	244
P.A.Xasanov	
Landshaftlardan foydalanishda turli yondashuvlarning qo'llanilishi va tizimli yondashuv	250
<hr/>	
QISHLOQ XO'JALIGI	
N.A.Abdujalil, S.A.Bayrambay, I.N.Mamajonov	
Urug'lik paxtani yetishtirish va yuqori kondisiyali urug'lik fondini tayyorlash.....	257

ILMIY AXBOROT

K.G'.Baykalanov	
O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarodarligini oshirishda jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhit farovonligining o'rni.....	263
G.M.Maxsudova	
Ekologik ta'limni modernizatsiyalashda ekosavodxonlikni shakllantirishning pedagogik va integrativ jihatlari	267
Sh.Ismatov	
Yangi O'zbekiston – yangi ma'naviy makon	272
A.A.Saodatov	
Yoshlar ekologik madaniyatida nodavlat-notijorat tashkilotlarining tutgan o'rni.....	276
M.X.Raxmatulloev	
Buxoro viloyat radiosining tashkil topishi tarixi va faoliyati	280
D.I.Nuriddinova	
Ona tili ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish texnologiyasi.....	285
D.M.Redjabova	
Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida xotin-qizlarning davlat tashkilotlaridagi faolligi	290
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik jihatlari	294
K.I.Turdaliyeva	
Интерпретация литературы по формированию функциональной грамотности учащихся начальных классов	297
N.A.Subxonova	
Mahalliy va xorij manbalarida Amir Shohmurod shaxsi va faoliyati tavsifi	303
Sh.M.Xaydarova	
Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlar o'ttasidagi dialektik munosabatlar va ularning rivojlanishi	307
D.M.Xusanov	
Axloqiy qadriyatlar va ularning postmodern jamiyatdagi o'ziga xos jihatlari	311
R.S.Batirov	
Ijtimoiy kapital tushunchasi va uning asosiy elementlari xususida	315
A.X.Mamadalimov	
Kosmopolitizm tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari xususida	319
Y.Sh.Yunusova	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarining falsafiy xususiyatlari	324
N.T.Buzrukova	
Zamonaviy jamiyatda shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash zarurati va falsafiy asoslari	327



**O'ZBEKİSTONDA MA'NAVİY-MA'RİFIY İSHLAR SAMARODARLIGINI OSHIRİSHDA
JAMIYAT İJTİMOİY-MA'NAVİY MUHİT FAROVONLIGINING O'RNI**

**РОЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ И ДУХОВНОЙ СРЕДЫ В УВЕЛИЧЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ
ДУХОВНОГО И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО РАБОТ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**THE ROLE OF THE SOCIAL AND SPIRITUAL ENVIRONMENT IN INCREASING THE
EFFECTIVENESS OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN UZBEKISTAN**

Baykalanov Kobul G'aybulloyevich

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annatotsiya

Mazkur maqola doirasida O'zbekistonda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ularning samaradorlik darajasi, aholining ijtimoiy ko'rinishi, ijtimoiy-ma'naviy muhit holati haqida fikr yuritilgan, Jamiyat hayotidagi ma'naviy-ma'rifiy asoslarni mustahkamlash haqida aytib o'tilgan. Ma'nан va jismonan yetuk yoshlarni tarbiyalash masalasi bugungi O'zbekiston uchun umummilliyl, umumdaqlat miqyosidagi vazifa bo'lib, bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarni izchillik va qat'iylik bilan davom ettirish mazkur sohadagi asosiy mezon ekanligi taholib etilgan.

Annotatsiya

В данной статье рассматриваются духовные и образовательные мероприятия, проводимые в Узбекистане, их эффективность, социальный облик населения и состояние социальной и духовной среды. Подчеркивается важность укрепления духовных и образовательных основ в жизни общества. Вопрос воспитания морально и физически зрелой молодежи является общенациональной задачей для современного Узбекистана, и в анализе отмечается, что последовательное и решительное продолжение усилий в этом благородном деле является основным критерием в данной области.

Abstract

This article discusses the spiritual and educational activities being carried out in Uzbekistan, their effectiveness, the social appearance of the population, and the state of the social and spiritual environment. It emphasizes the importance of strengthening the spiritual and educational foundations in the life of society. The issue of educating morally and physically mature youth is a national task for contemporary Uzbekistan, and the analysis highlights that the consistent and resolute continuation of efforts towards this noble goal is a key criterion in this field.

Kalit so'z: O'zbekiston, Vatan, ma'naviyat, ma'rifat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy muhit, mafkura, yoshlar daftari, obod mahalla.

Ключевые слова: Узбекистан, родина, духовность, просвещение, социальная защита, социальная среда, идеология, молодежный реестр, процветающее соседство.

Key words: Uzbekistan, homeland, spirituality, enlightenment, social protection, social environment, ideology, youth register, prosperous neighborhood.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston xalqi yangi demokratik jamiyat qurmoqda, uni rivojlantirishda ma'naviyat muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz oldida turgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy vazifalarni hal etishda ta'lim, ma'naviyatni rivojlantirish muammolariga alohida e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensivlashuvi, universal texnologiyalar bilan bog'liq jarayonlar bugungi kun uchun ma'naviy taraqqiyotni yuksaltirishni talab etadi. Ma'naviy taraqqiyotni yuksaltirishdan maqsad: yoshlar o'rtasida jahon adabiyoti durdonalari u yodqa tursin, o'zbek adabiyotining nomdor asarlarini ham bilmaydigan, arzimagan pulga o'z xalqini, dinini sotadigan, Vatanga qarshi nomaqbul ishlarni qiladigan insonlarning, yetishib chiqishiga yo'l qo'ymaslik. Yoshlarni tarbiyalash, mamlakat kelajagini ta'minlash demakdir. Shu sababli yoshlarga ma'naviy tarbiyaning ta'siri, yoshlarning jamiyat hayotidagi roli, uzlusiz ta'limni insonparvarlashtirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ahamiyati, ma'naviyat, ma'rifat, mafkura tushunchalarining bir-biriga bog'liqligi xususida amaliy

harakatlar qilinmoqda. Yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda qadimgi davr xalq og'zaki ijodining ajoyib durdonalari, Sharq va G'arbnинг o'tmishda ijod qilgan buyuk allomalarning fikrlari, yangi va eng yangi davrda yaratilgan ilm-fanning noyob durdonalarida yoritilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tashkil etadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyasining asosi tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandi. Bu jarayonda Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, uning joylardagi tuzilmalari hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilganini qayd etish lozim.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Hammamizga ma'lumki, "ma'naviyat" va "ma'rifat" tushunchalarining ko'pincha birgalikda qo'llanishi ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ta'lim va tarbiya uyg'unligini nazarda tutadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida buning ahamiyati, dolzarbliyi yuz barobarga oshadi. Aytib o'tganimizdek, ma'naviyat bevosita ma'rifat tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Chunki bilish orqali juda ko'p muammolarni bartaraf qilish mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda asosiy maqsad yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularning ma'naviy, estetik ehtiyojlarini qondirish, ma'naviy dunyosini boyitish, vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik hissiyotlarini rivojlantirish, jamiyat taraqqiyotida o'z o'rnini egallashi, kelajakda jamiyatning faol a'zosi sifatida shakllanishi, ilmli, bilimli, zukko bo'lishi kabi ulug' maqsadlar qo'yilgan. Hozirgi kunda bunday ishlar ta'lim muassasalari bilan bir qatorda mahallalarda ham tashkil etilishi katta samara bermoqda. Mahallalarda istqomat qilayotgan xalqimizni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash, ularning ma'rifiy va ijodiy qobiliyatlarini oshirish, dam olish va xordiq chiqarishini uyuşhtirish ham ma'naviy-ma'rifiy sohalarning ijtimoiy funksiyalarini belgilab bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'z lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqidan: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" deya ta'kidlab o'tgan. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar-keng ommani ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalash, ularning umumiyl ma'naviy saviyasini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga ko'mak beruvchi tadbirlar tizimini ifodalovchi tushuncha. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuni, maqsad-muddaolari har bir zamon va makonning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, g'oyaviy, mafkuraviy xususiyatlarga chambarchas bog'liq holda shakllanadi.

So'ngi yillarda milliy g'oyani shakllantirish, an'analarni qadrlash, urf-odatlar, milliy qadriyatlarni tiklash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ma'naviyat va ma'rifat sohalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar va shifokorlar, olimlar va ziyoililar, madaniy oqartuv muassasalari va boshqa sohalardagi mutaxassislarning ijodiy faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Hozirgi zamon, hayot talabiga binoan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi, davr talabi va manfaatlariga mos takomillashgan tizimi shakllantirildi. Bunda ta'lim tizimi, muzeylar, madaniyat uylari va saroylari, axborot resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari ommaviy muassasalar sifatida millionlab aholiga ma'naviy-ma'rifiy xizmat ko'rsatmoqdalar. Yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy muhitni yanada yaxshilash, ming yillar mobaynida uning bag'rida sayqallanib kelayotgan ibratli an'ana va qadriyatlarni targ'ib-tashviq etish borasida ko'plab tadbirlar tashkil etilmoqda. Shu mavzuda ilmiy-ommabop, publisistik asarlar, hujjatli filmlar va teleko'rsatuvlar yaratilib, turli ko'rgazmalar tashkil qilinmoqda. Bu sohadagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yo'nalishi har bir kishi ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish, ezgulik, bag'rikenglik, insonorvarvarlik, mehr-oqibat, iymon-e'tiqodni tarbiyalashga, ma'naviyatning milliy-etnik asoslari va zamonaviylikni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek! "Bir ziyoli-bir mahallaga ma'naviy homiy tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o'qituvchilar va taniqli ziyoilarni jalb etish,

ILMIY AXBOROT

ularning bu ishga mas'uliyat va kuyunchaklik bilan yondashishga erishish muhim ahamiyatga egadir".

Oliy ta'lif muassasalari rektorlari joylardagi hokimlar bilan birgalikda bunday jonkuyar domlalarni munosib ra'gbatlantirib borish choralarini ko'rish kerak. Shu bois ham mamlakatimiz Prezidenti tomonidan "Ma'naviyat fidoysi" ko'krak nishoni ta'sis etildi. Bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda birorta masala e'tibordan chetda qolmayapti. Chunki, xalq bilan davlat organlari yaqinlashdi. Kattami yoki kichik mutasaddilar zimmasiga sharafla va mas'uliyatli vazifalar yuklatildi. Qayerdaki, kamchilik bo'lsa aniqlanib, muammolar bartaraf etilyapti. Shuning bilan bir qatorda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "mahallabay" ishlash tizimining joriy etilishi yurtimizda aholi farovonligini yuksaltirish, bandligini ta'minlash hamda daromadini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Qolaversa, ushbu tizim doirasida aholining ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini kengaytirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jamiyatning ijtimoiy hayot sohasini jamiyatning tizimli ravishda tashkil etilgan qismi sifatida tavsiflash mumkin, bunda odamlarning tarixiy va ijtimoiy guruahlari ularning ijtimoiy mavqeい, jamiyat hayotidagi o'rni va roli to'g'risida o'zaro ta'sir o'tkazadilar. U o'z ichiga quyidagilarni oladi: sinflar va ijtimoiy qatlamlar, guruhlar, millatlar va millatlarning manfaatlari, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlar, mehnat va yashash sharoitlari, sog'liq va bo'sh vaqt. Jamiyatning ijtimoiy hayoti sohasi - bu nisbatan mustaqil, ajralmas quyi tizim bo'lib, u odamlarning muayyan ijtimoiy hamjamiyatlar a'zosi sifatida faoliyati va ularning jamiyatdagи mavqeining tengligi va tengsizligi nuqtai nazaridan ular o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar bilan tavsiflanadi. Jamiyatning boshqa sohalari qatorida ijtimoiy hayot sohasining muhim roli ijtimoiy faoliyat va munosabatlarda turli ijtimoiy jamoalarning hayotiy vaziyatida tenglik yoki tengsizlik o'chovi amalga oshirilayotganligi bilan belgilanadi. Bu to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiyadolat tamoyilini amalga oshirish darajasida aks etadi. Shu sababli ijtimoiy hayot sohasini yanada rivojlantirish - chuqur o'zgarish yo'liga qadam qo'ygan jamiyatimizni takomillashtirishning asosiy vazifalaridan biridir. Ijtimoiy siyosat mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning aniq manzilli xususiyatga ega ekan har bir muhtoj insonga uning real ehtiyojini hisobga olgan holda yordam ko'rsatish imkonini bermoqda. Bunda ushbu toifaga mansub hech bir inson e'tibordan chetda qolmasligiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu asosda jamiyatimizning ijtimoiy manzarasi butunlay o'zgarmoqda, samarali boshqaruvning natijadorligi oshmoqda, eng muhimi, odamlarning hayotga, mehnatga, o'zining taqdiri va ertangi kunga ishonchi ortmoqda. Yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning mutlaqo yangi va o'ziga xos tizimi yaratildi. Keyingi paytda "temir daftar", "ayollar daftari", "yoshlar daftari", "mahallabay" va "xonardonbay" ishslash usullari aynan shu maqsadda joriy etilmoqda. Shu asosda muammoga oid mavhum ko'rsatkichlar emas, balki yordam va ko'makka muhtoj har bir oila va fuqaroning, xotin-qizlar, yoshlarning muammolari o'z joyida aniq o'rganilmoqda, ular vaqtida va samarali hal etilmoqda. Bugungi kunda xalq farovonligini, odamlarning hayot darajasini har tomonlama oshirish, buning uchun yangi ish o'rirlari, daromad manbalarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish, qishloq va shaharlarimizni obod qilish iqtisodiy strategiyamizning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Keksalar, nogironlar, og'ir ahvolga tushib qolgan insonlarni qo'llab-quvvatlash, ularga mehr va muruvvat ko'rsatish kabi ezgu an'analar bugungi kunda yangicha ma'no-mazmun, amaliy harakatlar bilan boyib, takomillashib bormoqda. "Bu borada, ayniqsa, "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Besh muhim tashabbus", "Har bir oila "tadbirkor", "Yoshlar - kelajagimiz" kabi dasturlar o'z ijobji natijasini bermoqda. Birgina "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 2023-yilda barcha shahar va tumanlardagi jami 8 mingga yaqin qishloq va mahallada qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda".

O'zbekistonda inson qadri davlat siyosatining poydevoridir. Xususan, bunda aholini ijtimoiy himoya qilish masalasi alohida ahamiyatga ega. Davlatimiz tomonidan kam ta'minlangan oilalar, ayollar, yoshlar, keksalar, shuningdek, nogironlarga har tomonlama yordam ko'rsatilmoqda. Ko'rsatilayotgan yordam manzillidir, ya'ni faqat ehtiyojmand odamlarga beriladi. Uning maqsadi odamlarga hayotdagi qiyin damlarni yengib o'tishga yordam berish, ularda kelajakka ishonch uyg'otishdir.

Mamlakatdagi kambag'allikni bartaraf etish yo'llaridan biri bo'lgan ijtimoiy himoya samaradorligini oshirish faqatgina kompleks yondoshuvlar orqaligina amalga oshirilishi mumkin.

So‘nggi yillarda kambag‘allikni yengishga hissa qo‘sadigan boshqa sohalarda ham salmoqli sa‘y-harakatlar amalga oshirildi. Ularga yangi ish o‘rnları yaratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, qishloq joylari va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, qishloq joylarda infratuzilmani takomillashtirish, sog‘liqni saqlash, kasb-hunar ta’limi va tarbiyasini yaxshilash hamda iqtisodiy migratsiya kiradi. Bu sohalarda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan ijobji o‘zgarishlar mamlakatimizning uzoq muddatli kambag‘allikni qisqartirish dasturining muhim qismi hisoblanadi.

Muhtaram yurtboshimiz “Yangi O‘zbekistonni yuksak madaniyat ma’naviyatga ega bo‘lgan, erkin va baxtli insonlar yashaydigan mamlakatga aylantirish uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz” deb ta‘kidlaydilar va bu borada 2021-yil o‘z saylovoldi dasturlarida ham, “ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy-ma’rifiy yuksalishiga erishishga qaratilgan “Yangi O‘zbekiston-ma’rifatli jamiyat” konsepsiysi va uni amalga oshirish milliy dasturini ishlab chiqarish choralarini ko‘ramiz”. Yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda, xususan, shunday jarayonlar bilan shug‘ullanuvchi yaxlit tizim, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilyapti, ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmoqda. Mavjud muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratilmoqda.

XULOSA

Bugungi kunda biz mamlakatimizda inson erkin va farovon yashaydigan ma’naviy makon, ma’rifatli jamiyat qurish uchun qat’iyat bilan harakat qilmoqdamiz. Shunday ekan, biz jamiyatimiz bilan birgalikda yoshlarni ma’naviy tarbiyalashda ularning yoshi, xohishi, intelektual, ruhiy tayyorgarligini hisobga olishimiz kerak. Chunki yoshlar ta’sirga beriluvchan, ongiga o‘z atrof-tevarakdagи voqealarni tez singdiruvchan bo‘ladi. Bu borada yoshlarga darslar davomida ma’naviy-ma’rifiy mavzudagi kitoblar, bukletlar, stendlar, gazeta va jurnallardan foydalanish ma’naviy-ma’rifiy ruhda tarbiyalashning o‘ziga xos usuli hisoblanadi. “Mamlakatimizning keyingi davrga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida albatta ma’naviy-ma’rifiy islohotlarga alohida bo‘lim ajratilishi darkor”. Yurtimizda ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lamini kengaytirish maqsadida O‘zbekistonning 2022-2032-yillarga mo‘ljallangan ma’naviy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Shu munosabat bilan “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiysi ustida ish olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Шавкат Мирзиёев “Янги Ўзбекистон стратегияси”. -Тошкент: “O‘zbekiston” нашириёти. 2021. 464 бет
2. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy gazetasi 2021-yil 7-nayabr. “Ma’rifat” gazetasi 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF -4947-sonli Farmoni.
4. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” T. O‘zbekiston 2022-B.262
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, № PQ-3160, 28 iyul 2017 yil
6. Mavrufov A. Uchinchi Renessans-munosib kelajak poydevori, “Yangi O‘zbekiston”, 2020-yil 6-oktabr, 190 son, 3-bet.